



INFLUENCE OF THE NORMS OF FEEDING WITH MINERAL FERTILIZERS ON THE GROWTH AND DEVELOPMENT OF PEA VARIETIES

UrSU, b.f.f.d. (PhD)., **Bekchanova Madina Kaxramanovna**
UrSU, Magistr., **Raximova Mohinur Ho'sinboy qizi**
UrSU, Magistr., **Rahimberganova Mushtariy Temurovna**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14539058>

ARTICLE INFO

Received: 15th December 2024
Accepted: 20th December 2024
Online: 21th December 2024

KEYWORDS

Peas, leaf, height, variety, option, soil, nitrogen, ore fertilizers, planting norm, grain, dressing.

ABSTRACT

This article explores the influence of the norm of mineral fertilizers on the growth, development and formation of vegetative organs of the Emerald and pollen varieties of peas in the conditions of the Khorezm region.

ВЛИЯНИЕ НОРМ ПОДКОРМКИ МИНЕРАЛЬНЫМИ УДОБРЕНИЯМИ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ СОРТОВ ГОРОХА

УрГУ, б.ф.ф.д. (PhD)., **Бекчанова Мадина Кахрамановна**
УрГУ, Магистр., **Рахимова Мохиноур Гусинобой кизи**
УрГУ, Магистр., **Рахимберганова Мустари Темуровна**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14539058>

ARTICLE INFO

Received: 15th December 2024
Accepted: 20th December 2024
Online: 21th December 2024

KEYWORDS

Горох, лист, высота, сорт, вариант, почва, азот, рудные удобрения, норма высева, зерно, урожайность.

ABSTRACT

В данной статье изучено влияние нормы рудных удобрений на рост, развитие и формирование вегетативных органов сортов гороха изумруд и борщевик в условиях Хорезмской области.

MINERAL O'G'ITLAR BILAN OZIQLANTIRISH ME'YORLARINI NO'XAT NAVLARINING O'SISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

UrDU, b.f.f.d. (PhD)., **Bekchanova Madina Kaxramanovna**
UrDU, Magistr., **Raximova Mohinur Ho'sinboy qizi**
UrDU, Magistr., **Rahimberganova Mushtariy Temurovna**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14539058>

ARTICLE INFO

Received: 15th December 2024
Accepted: 20th December 2024
Online: 21th December 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

Ushbu maqolada Xorazm viloyati sharoitida no'xatning Zumrad va Polvon navlarining o'sishi, rivojlanishi hamda vegetativ organlarni shakillanishiga ma'danli o'g'itlar



*No'xat, bargi, bo'yi balandligi, me'yorining ta'siri o'rganilgan.
nav, variant, tuproq, azot,
ma'danli o'g'itlar, ekish
me'yor, don, xosildorlik.*

S.B.Mustanov, G.A.Suvonova, D.X.Berdimurodovlarning [1] fikricha, no'xatni "Umid" navining balandligi sug'orilgan sharoitda 84,5 santimetr gacha borgan. I.H.Hamdov, N.J.Xodjaeva, S.B.Mustanovlarning ko'rsatishicha no'xat o'simligining balandligi ekish muddatlariga bog'liqdir. Ularning ko'rsatishicha no'xat navining erta bahorda ekilgan variantlari bo'yi kech ekilgan variantlarga nisbatan ancha baland bo'lganligini aniqlaganlar.

E.Z.Isakova [2] olib borgan tajribalaridagi ma'lumotlarda no'xatni "Umid" navini o'sishiga ekish muddati va sxemasining ta'siri o'rganganida no'xatning ekish muddatlari kechikib borgan, har ekish sxemalari bo'yicha ekilgan variantlarda ekish muddati kechikib borgan sari o'simlik bo'yining balandligi ham pasayib borishini aniqlagan. Eng baland bo'lyi o'simlik erta ekilgan muddatda ya'ni 25-fevralda kuzatilganligi va o'rtacha o'simlik bo'yining balandligi 85,3 santimetrga teng bo'lgani, kech 15-aprel muddatda ekilgandagiga nisbatan 12,3 sm baland bo'lishi qayd etilganligi aniqlangan.

Xo'raki no'xat o'simliklarini bo'yining balandligi ekilgan navning biologik xususiyatlariga, ekish muddatlariga hamda qo'llanilgan agrotexnologiyalarga bog'liq holda o'zgarib borishi bizga ilmiy adabiyotlardan ma'lumdir.[3]

Olib borgan tadqiqotlarimizda no'xat navlari bosh poyasining balandligiga qo'llanilgan agrotexnik tadbirlarning ta'siri sezilarli darajada bo'lganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, no'xatning "Zumrad" navi mineral o'g'itlar $N_{30}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yorida qo'llanilgan 1-variantda no'xat o'simligining poya balandligi rivojlanish davrlari bo'yicha tahlil qilinganida, shoxlanish davrida 18,5 sm ni, gullash davrida 29,9 sm ni, dukkaklash davrida 49,8 sm ni, pishish davrida 52,4 sm ni tashkil etgan bo'lsa, mineral o'g'itlarning $N_{45}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yori qo'llanilgan 2-variantda no'xat o'simligining poya balandligi rivojlanish davrlari bo'yicha shoxlanish davrida 21,2 sm ni, gullash davrida 35,6 sm ni, dukkaklash davrida 53,2 sm ni, pishish davrida 56,0 sm ni, mineral o'g'itlarning $N_{60}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yori qo'llanilgan 3-variant tahlil qilinganida esa no'xat o'simligining poya balandligi shoxlanish davrida 23,6 sm ni, gullash davrida 36,8 sm ni, dukkaklash davrida 55,8 sm ni, pishish davrida 59,7 sm ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatgichlar Polvon no'xat navida tahlil qilinganda mineral o'g'itlarning $N_{30}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yori qo'llanilgan 4-variantda poya balandligi rivojlanish davrlari kesimida shoxlanish davrida 20,1 sm ni, gullash davrida 32,7 sm ni, dukkaklash davrida 52,3 sm ni, pishish davrida 53,4 sm ni, mineral o'g'itlarning $N_{45}P_{90}K_{60}$ kg/ga solingan 5-variantda shoxlanish davrida 20,9 sm ni, gullash davrida 36,1 sm ni, dukkaklash davrida 55,6 sm ni, pishish davrida 57,3 sm ni, mineral o'g'itlarning $N_{60}P_{90}K_{60}$ kg/ga me'yori qo'llanilgan 6-variantda shoxlanish davrida 23,7 sm ni, gullash davrida 38,6 sm ni, dukkaklash davrida 58,1 sm ni, pishish davrida 60,6 sm ni tashkil etib, pishish davrida dukkaklash davriga nisbatan 2,5 sm gacha yuqori bo'lganligi kuzatildi.

1-jadval

**No'xat navlari bo'yining balandligiga urug' ekish muddatlari va mineral o'g'itlar me'yorlarini ta'siri**

No	No'xat navlari	Mineral o'g'itlarning yillik me'yorlari, kg/ga	Shoxlanish	Gullash	Dukkaklash	Pishish
1	Zumrad	N ₃₀ P ₉₀ K ₆₀	18,5	29,9	49,8	52,4
2		N ₄₅ P ₉₀ K ₆₀	21,2	35,6	53,2	56,0
3		N ₆₀ P ₉₀ K ₆₀	23,6	36,8	55,8	59,7
4	Polvon	N ₃₀ P ₉₀ K ₆₀	20,1	32,7	52,3	53,4
5		N ₄₅ P ₉₀ K ₆₀	20,9	36,1	55,6	57,3
6		N ₆₀ P ₉₀ K ₆₀	23,7	38,6	58,1	60,6

Tajriba variantlaridan olingan natijalar mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlari kesimida Polvon va Zumrad no'xat navlarida o'rganilganida yuqori natijalar mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlari kesimida N₆₀P₉₀K₆₀ kg/ga mineral o'g'it me'yori qo'llanilgan variantlarda kuzatilganligi aniqlandi.

References:

1. Mustanov S.B., Suvonova G.A., Berdimurodov D.X. Biological nitrogen // India A Sian Journal of Multi dimensional Research. Vol 9, Issue 3, March, 04.2020. R.2278.
2. Isakova E.Z. O'simlikning biologik xususiyatlariga ekish sxemasi va muddatlarining ta'siri // Samarkand branch of Tashkent state university of economics. 27-28 April, 2022. B. 853-856.
3. Новиков В.М. Влияние гороха и гречиха на плодородие почвы и продуктивность звена севооборота при различной основной обработке почвы // Ж. Зернобобовых и крупяных культур, №2-сон, 2012. С.70-76.